

ASOSIY MINERAL O'G'ITLAR MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Nurmamatova Maxsuda Rayimovna

Navoiy shahar, 3-sonli FFCHÒIT maktabining

Kimyo-biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada asosiy mineral o'g'itlar mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, almashlab ekishda o'g'itlash tizimi o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasi, qishloq xo'jaligi agrokimyo va agrotuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: mineral o'g'it, almashlab ekish, o'g'itlash tizimi, agrokimyo, agrotuproqshunoslik.

Kirish:

Yer shari yuzasining 10 % ga yaqin qismiga qishloq xo'jalik ekinlari ekiladi. Ekin maydonlarining bundan kengaytirishning iloji yo'q. Ammo sayyoramiz aholisi to'xtovsiz o'sib bormoqda, ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun hosildorlikni yanada oshirish zarur. Buning eng muhim yo'llaridan biri mineral o'g'itlardan foydalanishdir. O'g'it — bu o'simliklar oziqlanishini yaxshilashga va tuproq unumdorligini oshirishga mo'ljallangan modda.

Mineral o'g'it - deb, tarkibida o'simlikni rivojlanishi va tuproq unumdorligini oshirish uchun zarur bo'lgan element saqlovchi, barqaror va yuqori hosil olish maqsadida foydalanadigan tuzlar va boshqa anorganik, sanoat va qazilma mahsulotlarga aytiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

O'g'itlarning xususiyatlari va tuproq bilan o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'simliklarning oziqlanishi uchun qulay sharoit yaratish hamda muayyan tuproq - iqlim sharoitlari uchun o'g'it qo'llashning samarali me'yor, usul va muddatlarini belgilashdir. Fanning vazifasi – O'simliklar oziqlanish jarayonida moddalar almashinuvi va tuproqdagi oziq moddalar dinamikasini o'rganish, hosil miqdori, mahsulot sifati va tuproq unumdorligini oshirishda o'g'itlardan oqilona foydalanishni tashkil etishdir.

Almashlab ekishda o'g'itlash tizimi o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- o'simliklarning kimyoviy tarkibi, o'simliklarning ildizdan oziqlanishining nazariy asoslari; tuproqlarning turlari va tiplari; oziq moddalarning dehqonchilikda aylanishi va agrokimyoning ekologik muammolari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak.

- mineral va organik o'g'itlarning turlari, olinishi xossalari ishlatilishini; - o'simliklar oziqlanishini tuproq va o'simlikning kimyoviy tahlil asosida aniqlashadi, qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibidagi oziq moddalar va zararli moddalar miqdorini kimyoviy tahlil orqali aniqlay olishdek ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

- asosiy ekinlarni o'g'itlash tizimini; o'g'itlarni saqlash tashish, tuproqqa solish uchun tayyorlashni bilishi va qo'llay olishi, o'g'itga bo'lgan talabni hisoblash; asosiy o'g'it turlarini farqlash; o'g'itlarni ekinlarga qo'llash bo'yicha malakalarga ega bo'lishi kerak.

Natijalar:

O'g'itlash tizimi almashlab ekishning maksimal samaradorligini, barcha ekinlardan yuqori va sifatli hosil olishni, tuproq unumdorligidan ratsional foydalanishni va o'g'it qo'llashda barcha sharoitlarni agrokimyoviy va iqtisodiy jihatdan qulay bo'lishni ta'minlashga doir masalalarni hal etish kerak. O'g'it qo'llash tizimiga alohida talablar qo'yiladi. Ekinlardan olinadigan hosilning qariyb yarmi mineral o'g'itlar hisobiga olinadi. O'g'itlash tizimi odatda uzoq muddat davomida reja asosida o'g'it kiritish uchun ishlab chiqiladi. Shuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, ishlab chiqarishda o'g'itlardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi agrokimyovo va agrotuproqshunoslik ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar «O'g'it qo'llash tizimi» fanining rivojlanish tarixi, o'simliklarning ildizdan oziqlanishini nazariy asoslari va o'g'itlardan to'g'ri foydalanishda tuproqning roli, oziq moddalarning dehqonchilikda aylanishi va agrokimyoning ekologik muammolarini o'rganish, shuningdek mineral va mahalliy o'g'itlarning turi va xossalari, tuproq va o'simlikni kimyoviy tashxis asosida aniqlash, asosiy ekinlarni o'g'itlashni, o'g'itlarni saqlash, tashish, tuproqqa solish uchun tayyorlash kabilarni o'rganish, ilmiy tadqiqotda modellashtirish va statistik yondashuv bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishlari kerak.

Muhokama:

G'allakorlarimiz mutaxassislar tavsiyasi hamda ilg'orlar tajribasiga tayangan holda omilkorlik bilan ish yuritsalar, bunday murakkab iqlim sharoitida ham mo'l hosil olishga muvaffaq bo'ladilar, albatta. Ko'p yillik tajribadan ma'lumki, hozirgidek noqulay ob-havo sharoitida ekinlarni mahalliy o'g'it bilan oziqlantirish yaxshi samara beradi. Chunki dalaga ko'proq mahalliy o'g'it chiqarilsa, u tuproqning tabiiy namligini saqlab, ekinning suvga bo'lgan talabini kamaytiradi.

Ekinlar hosildorligi tuproqqa solinadigan o'g'itlarning yalpi miqdori bilan emas, balki ulardan oqilona foydalanish hisobiga oshiriladi. Bu o'rinda o'g'it qo'llash tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Almashlab ekish sharoitida o'g'itlardan samarali foydalanishni tashkil qilish hamda ekinlaridan mo'l va sifatli hosil olish uchun maqbul o'g'it turi, me'yori, qo'llash muddatlarini

belgilash, o'g'it qo'llash tizimini ishlab chiqishda o'simliklarning biologik xususiyatlari, tuproqning meliorativ holatini yaxshilash, almashlab ekishni to'g'ri tashkil etish, agrokimyoviy xaritanomalardan unumli foydalanish, ilmiy tadqiqot muassasalari ma'lumotlari va ishlab chiqarish ilg'orlari yutuqlarini uyg'unlashtirishdan iborat.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mineral o'g'itlar asosan qishloq xo'jaligida, hosildorlikni oshirish maqsadida ekinzorlariga solish uchun ishlatiladi. O'g'it ishlatiladigan ikkinchi asosiy soha bu kimyo sanoatidir. Ayniqsa, natriy va kaliy tuzlari, masalan, Cl , KCl lar. Soda, xlorid kislota, potash, o'yuvchi natriy, o'yuvchi kaliy ishlab chiqarish uchun xomashyodir. Na_2SO_4 esa shisha, natriy sulfid, fluorid, kaliy va natriy dixromat, natriy fosfat ishlab chiqarishda xomashyo hisoblanadi.

Metallurgiya sohasida o'g'itlar rudalarni boyitishda, metallarni suyuqlantirishda, elektroliz yo'li bilan metallar olishda, metall yuzasiga ishlov berishda, metall va qotishmalarni payvandlashda ishlatiladi. Ayniqsa, natriy sulfat shisha olishda asosiy xomashyo hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev N.G., Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. “Kimyo o'qitish metodikasi”, O'quv qo'llanma, Toshkent, “Iqtisod-Moliya”-2013
2. M.N.Nabiev O'g'itlarni kimyoviy va fizik-kimyoviy tadqiq qilish va ularni ishlab chiqarishning ratsional usullarini ishlab chiqish // Mineral o'g'itlar kimyosi va texnologiyasi. - Toshkent, FAN, 2000. - S. 5-25.
3. Petrishchev A.G. Mineral o'g'itlar sanoatining SSSR oziq-ovqat dasturini amalga oshirishga qo'shgan hissasi // Qishloq xo'jaligida kimyo. - 2004. - № 6. - B.3-4.
4. Ismatov I.Sh., Omonov H.T., Mahmudov Yu.G., Kenjayev D.M., Qo'chqorov M.A., Xolmirzayev Z.J. Xolmatova D.B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishni takomillashtirish texnologiyalari. “Yangi nashr” Toshkent-2016.
5. V. N. Kochetkov Suyuq kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish - Moskva: Kimyo, 2012. - 240 p.